

Leksikologiya va leksikografiya bo'limi

Lug'atshunoslik bo'limi 1934-yilda tuzilgan bo'lib, asosiy maqsadi o'zbek tilidagi so'zlarni yig'ish va to'plashdan iborat bo'lgan. To'g'ri, 1934-yilgacha ham so'zlar yig'ilgan. Fitrat, Munavvar Qori, Cho'lpion, Botu, Elbek kabi ma'rifatparvarlar 20-30-yillarda o'zbek tili darsligi, o'zbekcha til qoidalari yaratish bilan birga, so'z yig'ishga ham katta e'tibor berganlar. Jumladan, Elbek 1923-yil 5-sentabrda "Turkiston" gazetasida "Lug'at va atamalar" bobi ochib, unda o'zbek so'zlarini yig'ish masalalarini ko'tarib chiqdi. U bu haqda shunday yozgan edi: "Biz gazeta betida lug'at va atamalar bobi ochmoqchi bo'lduk.

O'lkamizda chiqaturg'on turli asar va risololarning qo'llanaturg'on lug'at va atamalarini keng bir yo'lga solmoq va o'lkadagi lug'at va atamalarni bir turli ravishda ishlanishiga yo'l ochmoqchi bo'lduq: "Turkiston" gazetasi bundan so'ng payt bo'lishiga qarab, quyida ko'rsatilgan jadval bo'yicha lug'at va atamalar bobini davom etdira borishqa tirishar". Elbekning sa'y va harakati bilan "Turkiston" sahifalarida ko'plab so'zlar yig'ildi. Afsuski, u qataq'onga uchragach, olim yiqqan so'zlar yo'qolib ketdi. Xullas. 20-yillarda so'z yig'ish ayrim fidoyi olimlarning tashabbusi bilan bo'lgan bo'lsa. lug'at bo'limi vujudga kelgach, so'zlar reja asosida yig'ila boshladi. Bo'lim xodimlari ishni rus lug'atchiligi yutuqlari asosida tashkil etib, avvalo kartoteka fondini yaratish bilan mashg'ul bo'ldilar. Tarjima lug'atlari uchun alohida, izohli lug'at uchun alohida kartoteka fondi muntazam ravishda yangi so'zlar bilan boyib bordi. Dastlab misollar sidirg'asiga olingan bo'lsa, keyinchalik tanlab olish yo'liga o'tildi. Kartoyeka fondini yaratishda Sh.Xalilova, A.Xo'jaxonov, Sh.No'monova, S.Zufarov, N.Alhamova, G.Mixaylov, N.Xabibullayev, N.Ikromova kabi olimlarning hissasi katta bo'ldi. Bo'lim xodimlarining sa'y-harakati va chetdan so'z oluvchilarning yordami bilan hozirgacha kartoteka fondida 3 milliondan ortiq misollar yig'ildi.

Savodsizlikni bitirish yo'lidagi harakatlar, ijtimoiy turmushdagi o'zgarishlar lug'at tuzish ishini davlat darajasiga ko'tarishni taqozo etar edi. Maorif komissarligi 20-yillarda lug'at tuzish ishini tezlashtirish maqsadida bir necha qarorlar chiqardi. Ammo bu qarorlar hadeganda amalga oshavermadı. Sababi ayon: lug'at tuzish murakkab ish bo'lib, u har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. So'zlarни alifbo tartibida joylash bilan lug'at tuzilmaydi. Shunda maorif komissarligi lug'at tuzish ishini 20-yillar ma'rifatparvari Ashurali Zohiriyya topshirdi. U o'z davrining ko'zga ko'ringan tilshunosi bo'lib, 20-30-yillar til va imlo masalalari bo'yicha bir qancha asarlar yozib, jamoatchilikka tanilgan edi. Olim oldida qiyin muammo turar edi: bir tomonidan, yaxshi maslakdoshi yo'qligi, ikkinchi tomonidan ruscha lug'atlar yetishmasligi. Shuning uchun A.Zohiriyy lug'at ishiga ijodiy yodgandi. 1923-yili Qozonda A.Karam va A.Rahmonquli tomonidan tuzilgan "Ruscha-tatarcha mukammal lug'at"ni o'ng tarafidagi tatarcha so'zlar o'rniga o'zbekcha so'zlar qo'yib, 1927-1928-yillarda ikki jildli "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at"ni nashrdan chiqardi. Ushbu lug'at keng xalq ommasi tomonidan qizg'in kutib olindi. Ilmga chanqoq yoshlari ushbu lug'at vositasida o'zbekcha so'zlardan tashqari, rus tilini ham o'rgana boshladilar. To'g'ri,

A.Zohiriy tataрcha so‘zlar o‘rniga o‘zbekcha so‘zlarni qo‘yar ekan, ayrim xatolarga ham yo‘l qo‘ygan. Ammo bu kamchilikka qaramasdan, lug‘at 20-30-yillar savodsizlikni bitirishda katta yordam berdi.

1927-yili K.K.Yudaxin “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘at” nashr qildi. Bu lug‘at 10000 so‘zni qamrab olgan bo‘lib, hajm jihatdan A.Zohiriy nashrga tayyorlagan lug‘atdan to‘rt barobar kichik edi. Oradan yetti yil o‘tgach, Umar Ahmadjonov va Burhon Ilyosovlar “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” nashr qildilar. 25000 nusxada chop etilgan ushbu lug‘at respublikamizda ikki tilli lug‘atlar tuzish ishiga turki bo‘ldi. 1934-yili Sahiy Rahmatiy. Abdulla Qodiriy va A.Saidovlar “Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik” tuzdilar. Ayrim sabablarga ko‘ra lug‘atning birinchi jildi chiqmay, “P-YA” harflaridan iborat ikkinchi jildi chiqqan. Bir yil o‘tgach, V.V.Reshetov 7000 so‘zli “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘at” tuzdi. Lug‘atlarga talab katta bo‘lganidan ushbu asar ham tez orada tarqab ketdi. Umuman olganda, lug‘at tuzuvchilar malakasi oshib borgan sari lug‘atlar ham ilmiy jihatdan mukammallahib bordi. Bu esa 40-50-yillarda nashr qilingan lug‘atlarga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi.

1941-yili T.Qori-Niyoziy va A.K.Borovkovlar 17000 so‘zni o‘z ichiga olgan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” tuzdilar. Bir yil o‘tgach, 30000 so‘z va iboradan iborat “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” nashr qilindi. 1945-1946-yillarda institutning lug‘at bo‘limi xodimlari besh jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” ustida ish boshladilar. O‘z ichiga 72000 so‘z va birikmani qamrab olgan ushbu lug‘at 1950-1956-yillarda nashr qilindi. Tilshunoslik tarixida katta voqeа bo‘lgan ushbu lug‘atda moskvalik olimlar bilan birga, Z.Ma’rufov, S.Akobirov, Sh.Shoabdurahmonov, O.Usmonov. H.G‘ulomov, M.Sodiqova, N.Alhamova, A.Xo‘jaxonov, A.To‘raxonov. A.Burnashev, K.Muhamedov, A.Azizov, V.M.Popov, YE.Mashtakova, O.Rahimiyy kabi olimlar faol ishtirok etdilar. 1954-yili 50000 so‘z va birikmadan iborat “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” nashr qilindi. Ushbu lug‘at fan sirlarini jiddiy o‘rganishga kirishgan yoshlarga rus tilini o‘rganishda katta yordam berdi.

1959-yili lug‘atchilik tarixida quvonchli yil bo‘ldi. Moskvada ko‘pchilik turkshunoslar tomonidan iliq kutib olingan “O‘zbekch-aruscha lug‘at” nashr qilindi. Ushbu asardagi lug‘at maqolalari puxta ishlangan bo‘lib, uni tuzishda Z.Ma’rufov, S.Akobirov, N.Mamatov kabi suyagi lug‘atda qolgan olimlar qatnashdilar.

Bo‘lim xodimlari lug‘at tuzish bilan birga, lug‘atchilikning nazariy masalalari bilan ham shug‘ullanib, bir qancha nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladilar. N.Mixaylov sho‘ro davrida tuzilgan o‘zbekcha-ruscha lug‘atlarni o‘rganib, ularning yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatib berdi, kelgusida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan masalalarga o‘quvchi diqqatini qaratdi. S.Akobirov rus va turkiy lug‘atlardagi terminlar masalasini o‘rganib, ular izohidagi har xilliklarga barham berish lozimligini uqtirdi. Olim bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha amaliy tavsiyalar ishlab chiqdi.

N.Mamatov o‘zbek tilidagi paxtachilik terminlarini monografik planda H.Yusufxo‘jayeva o‘z ilmiy ishida -(i)sh, -moq, -(u)v fe’l shakllarining o‘zarо aloqalarini tahlil qilgan. Izohli lug‘atda -moq affiksli shaklning bosh so‘z sifatida berilishini asoslagan. N.Ikromova “O‘zbek pazandachilik terminlari” mavzuidagi dissertatsiyasida bu sohaga oid so‘zlarning qadimgi davrdan hozirga qadar bo‘lgan taraqqiyotini o‘rgangan. Ularning o‘zbek tili lug‘at boyligining bir qismi ekanligini ko‘rsatib bergen.

1981-yili o‘zbek madaniyati tarixida birinchi marta ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nashr qilindi. Ushbu lug‘atning tuzilishiga Z.Ma’rufov, S.Akobiroq, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov, M.Mirtojiyev, S.Ibrohimov, S.Zufarov, Sh.No‘monova, N.Ikromova, G.Mixaylov, N.Xabibullayev kabi olimlar barakali hissa qo‘shdilar. 60000 so‘z va birikmadan iborat ushbu asar o‘zbek lug‘atchiligi tarixida katat voqeа bo‘ldi.

XX asr 80-yillarida katta ruscha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar tuzish ishi yana kun tartibiga qo‘yildi. Institutning shu yillardagi direktori M.Qo‘shtonovning yordami bilan 1983-1984-yillarda S.Akobirov, S.Kim, N.Mamatov, N.Alhamova va boshqa olimlar tomonidan ikki jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” hamda 1988-yilda “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” nashr qilindi. 70000 so‘z va birikmani o‘z ichiga olgan ruscha-o‘zbekcha va o‘zbekch-aruscha lug‘at o‘zbek lug‘atchiligining hamma yutuqlari asosida tuzildi, desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Keyingi yillarda professor To‘ra Mirzayev rahbarligida yangi ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ustida ish olib borilmoqda. Unda A.Hojiyev, E.Begmatov kabi oqsoqol olimlan bilan bir qatorda. A.Madvaliyev, N.Mahkamov, D.Xudoyberganova kabi iste’dodli tilshunoslar ishtirok etmoqdalar. Ushbu nashr ilgarigi lug‘atdan quyidagilari bilan farq qiladi.